

“O‘zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi” aksiyadorlik jamiyati
aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishi to‘g‘risida
XABARNOMA

HURMATLI AKSIYADORLAR!

“O‘zRTXB” AJ aksiyadorlariga **2025-yil 16-may** kuni soat 11:00da aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishini ma’lum qiladi.

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi aksiyadorlar umumiy yig‘ilishlarini masofadan turib internet tarmog‘ida onlayn rejimda o‘tkazishga mo‘ljallangan “Elektron ovoz berish - eVOTE” (<http://evote.uz/>) elektron ovoz berish servisi orqali o‘tkaziladi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishida ishtirok etuvchi “O‘zRTXB”AJ aksiyadorlari reyestrini shakllantirish kuni: **2025-yil 12-may**.

Kun tartibi:

1. “O‘zRTXB” AJ aksiyadorlari umumiy yig‘ilishining reglamentini tasdiqlash.
2. Sanoq komissiyasi a‘zolarining soni va shaxsiy tarkibini, hamda ularning vakolat muddatlarini tasdiqlash.
3. “O‘zRTXB” AJ boshqaruv raisini tayinlash to‘g‘risida.

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ko‘rib chiqiladigan materiallar bilan aksiyadorlar Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, Bobur ko‘chasi 77-uyda joylashgan Birja binosida, 2025-yil 12-maydan boshlab aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan kunga qadar ish kunlari soat 10-00 dan 16-00 gacha tanishib chiqishlari mumkin.

Aksiyadorlar <http://evote.uz/> internet saytining elektron ovoz berish servisi orqali yig‘ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan aksiyadorlar ro‘yxatiga kiritilganligi haqida elektron xabar olgan vaqtdan boshlab Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ishtirok etuvchi aksiyadorlar sifatida ro‘yxatdan o‘tkazilgan deb hisoblanadi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishida elektron ovoz berish servisi orqali ishtirok etish qoidalari (shartlari) bilan <http://evote.uz/> saytida tanishib chiqishingizni so‘raymiz.

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ishtirok etish va ushbu yig‘ilishda ko‘rib chiqiladigan materiallar bilan tanishish yuzasidan savollar bo‘yicha (71) 207-00-33 (ichki:1045) telefon raqami orqali murojaat qilishingizni so‘raymiz.

Aksiyadorlar o‘z murojaatlarini quyidagi elektron manzillarga yuborishlari mumkin: info@rtsb.uz.